

This is not registered version of TotalDocConverter
Yer Mehri

- Namuncha yerga yopishmasang, - debdi Shamol.
- Yerning mehri, bag'ri issiq-da, - debdi Qor.

Shakl

- Ko'p siqmagin, ezildim-ku! - zorlanibdi Loy.
- Siqmasam, g'isht shakliga kirib bo'psan! - deb javob qilibdi qolip.

Go'zallik

- Odamlar nega doim senga intiladi? Siring nimada?- so'rabdi Jar.
- Ularni boshimga ko'tarib, dunyoni ko'rsataman, - debdi Cho'qqi.

Alam Va G'am

- Alam sheri G'amga debdi:
- Tabassum bilan gaplashma, u bizni ko'rolmaydi.

Bag'ri Issiq

- Toshko'mir buncha qop-qora, xunuk bo'lmasa? - debdi Kesak.
- Sirdan baho bermagin, uning bag'ri naqadar issiq, - debdi Tosh.

Gul Va Zarpechak

Zarpechak Gulga o'shqiribdi:

- Qurib ketgur. Odamlar bo'yи-basting uchun doim bizni yuladilar!..
- E, nodon, shunga quritadilar, deb o'ylanasanmi? Axir, barcha narsani bo'g'ib ko'kartirmaysan-ku?!.

To'g'rilik Uchun

Bolg'a egri mixni to'g'rakashga harakat qilardi. Shunda egri Mixdan nido chiqibdi:

- Rahming kelsin...
- Bo'lmasa, to'g'ri tur-da, - debdi Bolg'a.

Qo'nimsizlik

- Meni nega shamol quvlagani quvlagan? - so'rabdi Somon.
- Ildizingdan ayrilgansan! Shunga qo'niming yo'q, - javob beribdi Chinor.

Ulug' Baxt

- Oqibating shu ekan: bir zum yonib, keyin keraksiz bo'lib qolding-ku! - debdi Kulga Kesak.
- Axir, olov bo'lib, odamlarning xizmatini o'tab, burchimni ado etdim. Bundan ulug' baxt bormi! - debdi Kul.

Vazifa

- Ko'p gapirib, boshimizni og'ritib yubording, - dedi Tishlar.
 - Vazifam gapirish-da, - deya yaldoqlanibdi Til.
 - Tilni tiyish ham bizning vazifamiz doirasiga kiradi!
- Tishlar birlashib, og'izni ochirmabdi.

Devor

- Odamlar g'alati-da, devorning qulog'i bor, sekin gapiringlar, deb meni gunohkor qilishadi, - debdi Devor.
- Etibor berma, ular bir-birlaridan qo'rqqanlaridan sendan xavotirlanishadi, - debdi shift.

Qadr

- Qisqich o'zi nima-yu, xizmati qancha bo'lardi?
- Xizmatini qadrlaymiz. Bizlarni birlashtirib tursa, bo'lgani, - izoh beribdi Qog'oz.

Bag'ri Kenglik

Toshlardan o'tayotgan issiq harorat tuproqni qizdirardi.

- Toshbag'irsan, deyishardi. Haq ekan, bunchalik kuydirmasang?
- Nima qilay, Quyoshti ko'rdim deguncha taftida yonaman, - debdi tosh.

Alhazar

- Boshni men omon saqlab turibman, - debdi Til.
- Alhazar! Tavba! - deb hayron qolibdi Aql.

Oqibat

Farzin Filga izoh beribdi:

- Ruh o'zini to'g'rilikka uraverib, oqibat o'rnini chetdan topdi-ku.
- Undoq emas. Shohimiz uning sadoqatini bilib, o'z o'rnini topshirgan, - debdi Fil.

"Yoshlik jurnalining 2011-yil, 7-sonidan olindi.